

5. Energetik almashinuv jarayonida hujayrada 78 molekula ATF va 12 molekula karbonat angidrid gazi hosil bo'lgan. Aniqlangchi necha molekula glukoza glikolizga uchragan va undan qanchasi oxirgi mahsulotlarga parchalangan?

37- §. 5- laboratoriya mashg'uloti



O'simlik bargida organik moddalarning hosil bo'lishini o'rganish

Ma'lumki, o'simlik barglarida hosil bo'ladigan asosiy organik modda kraxmaldir. U quyosh nuri ta'sirida hosil bo'ladi. Agar biron-bir usul bilan bargning ma'lum qismiga quyosh nurining ta'siri to'sib qo'yilsa, o'sha joyda kraxmal hosil bo'lmaydi. Bu hodisani quyidagi tajribada tekshirib ko'rish mumkin.

Asbob va materiallar: Etil spirti, yodning 1 % li eritmasi, yorongul xona o'simligi, ochiq joyda o'sayotgan barg sathi katta birorta o'simlik (otquloq yoki chinor daraxti).

Ish tartibi:

1. O'simlik bargini ostki va ustki tomonini to'sadigan qora qog'oz olib, har ikkala tomonidan bir xil ko'rinishga ega shakl (uchburchak, to'rtburchak) kesib olinadi va u bilan bargga qis-tirg'ichlar yordamida biriktirib qo'yiladi.

2. Oradan 2 soat o'tgandan keyin barg kesib olinadi, qog'oz olib tashlanadi va qaynab turgan suvda 2–3 daqiqa ushlana-di, so'ngra pigmentlardan tozalash uchun spirtga solinadi, keyin spirtidan olib suvda yuviladi.

3. So'ngra bargni yod eritmasi solingan idishga olamiz. Shisha tayoqcha yordamida barg tekislanga bargning ochiq joyida ko'k rangli dog' hosil bo'lganini ko'ramiz. Bargni yopib qo'yilgan joylari rangsiz bo'ladi, chunki kraxmal hosil bo'lmaydi.